

**ERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLASHEVA NARGIZA ARALBAYEVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA
MINTAQAs SANOATINI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Allasheva Nargiza Aralbayevna

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv
salohiyatini oshirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)..... 3

Аллашева Наргиза Арлбаевна

Повышение управленческого потенциала в сферах услуг в условиях
инновационной экономики (на примере Республики Каракалпакстан)... 23

Allasheva Nargiza Aralbaevna

Enhancing management capacity in the service sector under the conditions
of an innovative economy (the case of the Republic of Karakalpakstan)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMUY KENGAH ASOSSIDA BIR MARTALIK ILMUY
KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLASHEVA NARGIZA ARALBAYEVNA

**INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA
MINTAQAs SANOATINI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)**

**08.00.13 – Menejment
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD /Iqt3090 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuec.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djurabayev Otabek Djurabayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Salayev Jasurbek Komilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “16” 02 soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (444 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “02” 02 kuni tarqatildi.

(2026-yil “02” 02 dagi № 112 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bolyicha faslafa doktori, dotsent



K.Ubaydullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda innovatsion rivojlanish, jamiyat va iqtisodiyotni jadal modernizatsiyalash yo‘liga o‘tish ham umumdavlat, ham mintaqaviy ahamiyatdagi barcha bo‘g‘inlarda mos holdagi vazifalarni hal qilish yo‘llarini izlab topishga bo‘lgan diqqat-e’tiborni oshirib bordi. Ayniqsa, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning drayveri sifatida olib qaraladigan sanoat sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida sanoat o‘sishining 2,4 % gacha sekinlashuvi ro‘y berib, faqatgina 2026-2027-yillarga kelibgina sanoatning yillik o‘sishi 2,6 % gacha chiqishi kutiladi¹. Hozirgi vaqtga kelib yuzaga kelgan sanoat majmuasi korxonalarini boshqarish tizimi mazkur ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlash uchun to‘la mos kelmaydi, bu sanoat ishlab chiqarishida, korxonalar xo‘jalik faoliyatida va sanoat korxonasi jamoasining ijtimoiy rivojlanishida innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi. Mintaqa sanoatini boshqarish tizimida innovatsion o‘zgarishlar mavjud emasligi sanoat sohasidagi past samaradorlik va korxonalar raqobatbardoshliligi yetarli darajada emasligining bosh omillaridan biridir.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi yuqori dinamizm, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarning jadal o‘zgarib borishi turli mamlakatlarda sanoatni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha yangidan-yangi yondashuvlarni shakllantirish yo‘lida ilmiy izlanishlarning keng miqyosda olib borilishiga sabab bo‘ldi. Bu borada mazkur ilmiy izlanishlarda sanoat korxonalarining nafaqat samarali faoliyat yuritishlari, balki ularning yaqin va uzoq istiqbol davrlarida raqobatbardoshlikni mustahkamlagan holda barqaror rivojlanib borishlari masalalariga ham diqqat qaratilmoqdadir. Shuning uchun xalqaro ilmiy doiralarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlarni ishlab chiqish, bunda raqamli va yashil iqtisodiyot trendlariga urg‘u berish lozimligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham sanoatni innovatsion asoslarda rivojlantirish, bunda mintaqalar sanoatining mazkur yo‘nalishda tutgan o‘rnini oshirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda, bu borada sanoatni rivojlantirish bo‘yicha hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur jarayonlarning huquqiy asoslarini belgilab berdi². Mana shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida O‘zbekiston, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ko‘plab zamonaviy sanoat hududlari, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish majmuasiga asoslangan sanoat korxonalari paydo bo‘ldi. Jumladan, 2024-yilda hududga 2 milliard 100 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, buning natijasida mintaqa sanoatida 206 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi³. Shuningdek, tegishli qaror negizida Qoraqalpog‘iston

¹ Global Economic Prospects - <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects>

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.01.2024 yildagi 18-son “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” - <https://lex.uz/ru/docs/-6746813>

³ Qoraqalpog‘iston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish va ish o‘rinlarini ko‘paytirish choralari muhokama qilindi - <https://president.uz/uz/lists/view/6964>.

Respublikasida 2024-2025-yillarda maxsus sanoat (erkin iqtisodiy), kichik sanoat, yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalarida loyihalarni joylashtirish uchun aukzion savdolariga chiqariladigan bo'sh yer maydonlari ro'yxati tasdiqlanib, bugungi kunda mazkur yo'nalishdagi ishlar jadal amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldag'i "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-66-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-avgustdag'i "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-295-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-yanvardagi "Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 18-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi "2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 155-son qarori va shu kabi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. Innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida mintaqa sanoatini boshqarish masalalari so'nggi yillarda ko'plab xorijlik va mahalliy tadqiqotchi-olimlarning ayrim ilmiy ishlarida yoritishga harakat qilingan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'r ganib chiqilgan ilmiy manbalarni tahlil qilib chiqish shuni ko'rsatadi, bu ilmiy ishlarda mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirishga birinchi o'rinda tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatishi hamda ular asosan to'rt - iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy ta'sir guruhlaridan iborat bo'lishi ta'kidlab o'tilgan. Mintaqa sanoatini rivojlantirish sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan S.Yu.Glaziev, R.S.Grinberg, A.I.Tatarkin⁴ kabi MDH davlatlari olimlari o'zlarining ilmiy izlanishlarida mintaqa sanoat majmuini boshqarish va uni intensiv rivojlantirish jarayonlarining bosh omili sifatida innovatsiyalarni va innovatsion boshqaruv metodlarini ko'rsatib o'tganlar.

Taniqli iqtisodchi-olim M. Porter o'zining 2004-yilda "Strategning beshta qaltis xatosi" nomli asarini nashr qildirdi. Uning bu asarida "...hamma eng yaxshisi bo'lishni istaydi, lekin buning uchun noyob bo'lish zarurdir" deb ta'kidlagan g'oyasi mintaqa sanoatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish borasida juda o'rinli bo'lib hisoblanadi – chunki bugungi kunda nafaqat mintaqa sanoatini boshqarish, balki umuman olganda biznesning istalgan sohasini boshqarish ancha takomillashib, raqamlashtirish jarayonlarining tobora keng yoyilishi menejment

⁴Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – М, 1993. – с. 310.; Гринберг Р. Российская структурная политика между неизбежностью и неизвестностью. // Вопросы экономики, 2008, № 3. – С. 58; Татаркин А.И. Промышленная политика: генезис, региональные особенности и законодательное обеспечение. / А.И.Татаркин, О.А.Романова. // Экономика региона, 2014, № 2. – С. 9

usullari va g‘oyalarini ham yangi bosqichga olib chiqib, boshqaruvning yangicha g‘oyalari va metodlarini ishlab chiqish tobora murakkablashib bormoqda⁵. Shuningdek, M.Porter mintaqa sanoatini innovatsion rivojlanishini boshqarish jarayonlarida sanoat klasterlarini rivojlantirish zaruriyatini ta‘kidlab o‘tgan va bunda u sanoat korxonalari muntazam ravishda innovatsiyalarni joriy etish bilan yuqori darajadagi mehnat unumdorligini ta‘minlay oladi deb hisoblaydi.

Mintaqa sanoatining rivojlanishida klaster nazariyasidan foydalanish g‘oyasini tadqiqotchi M.Enrayt yanada rivojlantira borib, bunda u mintaqa sanoatini boshqarish, uni rivojlantirishda tarixiy shart-sharoit, biznes yuritish madaniyatining turli-tumanligi, ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari muhim ahamiyatga ega deb uqtirib o‘tadi. M.Enrayt o‘z ilmiy ishlarida mintaqa sanoatining innovatsion rivojlanishida klasterlar katta ahamiyatga ega deb hisobladi va bunda sanoat klasterlarini a‘zo firmalarning geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashishi mintaqa sanoatini boshqarish uchun juda qulay imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatib o‘tgan⁶.

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan Sh.N.Zaynuddinov, A.A. Mamadaliyev, D. Shodiyeva, N.M. Rasulov, Sh.G. Akramova, B.B. Baxtiyorov, A.M.Qodirov, M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, Sh.I.Otajanov, A.Artikov, S.Saidkarimova, Sh.Obloqulova, O.Nazarbaev, B.Qalmuratov boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan⁷ hamda mintaqa sanoatini boshqarish, bunda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash, innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida mintaqa sanoatini boshqarishning o‘ziga xos jihatlari borasida izlanishlar olib borishgan bo‘lib, bunda ular sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda inson omilining o‘rni, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talab, jumladan, sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirishda innovatsion ishlanmalardan foydalanish kabi bir qancha muhim masalalarning uslubiy asoslarini o‘rgandilar.

⁵Портгер М. Пять смертных грехов стратега. // Секрет фирмы, 2004. –С. 60.

⁶Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game // World link.

⁷Зайнуддинов Ш.Н., Расулов Н.М. Инновацион менеджмент (дарслик). - Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-матба уйи”, 2020. - Б.540; Мамадалиев А.А. Иқтисодиётни бошқаришда инсон омилини фаоллаштиришнинг ташкилий-иктисодий механизмидан фойдаланишни такомиллаштириш. (PhD) дисс. автореф. -Т.: 2017. – Б.28; Бахтиёров Б.Б. Саноат корхоналари инновацион бошқарувини ривожлантиришда илгор хориж тажрибасидан Расулов Н.М. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш: (DSc) дисс. автореф. –Т., 2021, -Б.81фойдаланиш имкониятлари Free Small Business Advice – <https://www.sore.org> Кадыров А. М. «Инновационный потенциал развития промышленных предприятий Республики Узбекистан. Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновация, конкурентоспособность, инвестиции» -Т., 23 апреля 2008 г.; Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления Инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: 2004, – 291 с.; Нуримбетов Р.И., Джуманиязов У.И. Мамлакат иқтисодий ривожланишини таъминлашда инновацион бошқарувнинг ўрни ва ахамияти// Иқтисодиёт ва таълим, 2018, 4 сон; Отажанов Ш. И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иктисодий механизмлари самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Т.: 2018–56 б. А. Артыков «Концептуальные основы научно-технической и Инновационной политики региона» Биржа эксперт 2009, №6, 42-44 стр. Умаров И., Сайдкаримова С., Облоқулова Ш. Саноат корхоналарининг инновацион салоҳияти кўрсаткичлари таҳлили// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2015 йил. 4 сон, июль-август. Назарбаев О. Экономиканы инновациялар басқарыў//Монография, “Lesson Press” Т: 2022. 138 б. Qalmurraqtov B.S Sanoatni innovatsion rivojlantirishni boshqarish mexanizmi samaradorligini oshirish strategiyasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

Ammo yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shunga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishida innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirishda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olingan bo‘lib, bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston bozor iqtisodiyoti institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-2017-0928465 “Qoraqalpog‘istonda agroturizmni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari” mavzusidagi davlat amaliy granti, 2015-2017-yillarda bajarilgan F-1-77-sonli “Janubiy Orol bo‘yi ekologik sharoitida Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy metodikasini, metodologiyasini va strategiyasini ishlab chiqish (Quyi Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)” fundamental tadqiqotlar davlat grantlari va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyot sharoitlarida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– mintaqa ishlab chiqarish tizimida sanoat tarmoqlarining funksional rolni yoritish va uning ahamiyatini ilmiy asoslash;

– mintaqada sanoatni boshqarishning iqtisodiy indikatorlari va ularni aniqlash yo‘llari o‘rganish;

– sanoatni rivojlantirishni boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish istiqbollarini belgilash;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

– sanoatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ijtimoiy so‘rovnama orqali baholashni amalga oshirish;

– mintaqa sanoati rivojlanishining dasturiy-maqsadli boshqarish metodi va undan foydalanish yo‘llarini belgilash;

– mintaqada sanoatni rivojlantirishning tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatini rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlash;

– mintaqa sanoatini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, vertikal va gorizontal tahlil, ekspert baholash, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, anketa so‘rovlari o‘tkazish va tahlil qilish, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatni rivojlantirishni dasturiy-maqsadli boshqarishda barcha dasturiy-maqsadli hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, amalga oshirishni monitoring qilish va baholash uchun yagona markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi ishlab chiqilgan;

mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturi va uning elementlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda erishilishi ko‘zda tutiladigan indikativ natijalar asoslab berilgan;

mintaqa sanoatini rivojlantirishni boshqarishni hududiy sanoat dasturlari, imtiyozlar, infratuzilma va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni har bir yirik/o‘rta sanoat korxonasi faoliyatini global raqobatbardoshlikka erishish omillariga ko‘ra baholash natijalariga bog‘lash orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

mintaqa sanoatining statistik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish modeli asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari va sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmining 2025-2029 yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirishning ahamiyati va tutgan o‘rni belgilab berilgan;

mintaqa sanoatida boshqarishning iqtisodiy indikatorlari va ularni aniqlash yo‘llari asoslab berilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatini rivojlantirish jarayonlarida dasturiy-maqsadli boshqarish metodini qo‘llash va undan foydalanish mexanizmi taklif etilgan;

innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida Qoraqalpog‘iston sanoatini rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan;

innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarida mavjud statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish hamda matematik modellashtirish metodlari asosida mintaqada sanoat mahsulotlari va sanoatda qo‘shimcha qiymat hajmining prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi statistik ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilganligi hamda tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, taklif va amaliy tavsiyalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mintaqa sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish

uchun ustuvorlikka ega bo‘lgan tarmoq va sohalarni innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilganligi, shuningdek, mintaqalarda sanoat sohasini boshqarish tizimini yanada rivojlantirish hamda mintaqalarda sanoatini boshqarishda tarmoq dasturi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mintaqalarda sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq natijalar Respublikamiz mintaqalarida, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mintaqalarda sanoatini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida istiqbolli dastur va kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, “Menejmentga kirish”, “Innovatsion menejment”, “Innovatsion iqtisodiyot”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Strategik menejment”, “Sanoat iqtisodiyoti” va “Korxonalarini rivojlantirish strategiyasi” fanlari bo‘yicha keys-stadi, ma’ruzalar matni, darslik, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida mintaqalarda sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatni rivojlantirishni dasturiy-maqsadli boshqarishda barcha dasturiy-maqsadli hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, amalga oshirishni monitoring qilish va baholash uchun yagona markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025-yil 24-iyuldaggi 05-05/16-07835–son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining ish faoliyati samaradorligini oshirish va mintaqalarda sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish imkonini bergen;

mintaqalarda sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturi va uning elementlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda erishilishi ko‘zda tutiladigan indikativ natijalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025-yil 24-iyuldaggi 05-05/16-07835–son ma’lumotnomasi). Ushbu taklif asosida, mintaqaning sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyatlarini tarmoq dasturi va uning elementlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda erishilishi ko‘zda tutiladigan innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishda axborotlarning ishonchligi, to‘liqlilik darajasi va foydalanuvchilarning talablariga mos kelishini ta’minlaydi hamda iqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirgan;

mintaqalarda sanoatini rivojlantirishni boshqarishni hududiy sanoat dasturlari, imtiyozlar, infratuzilma va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni har bir yirik/o‘rta sanoat korxonasi faoliyatini global raqobatbardoshlilikka erishish omillariga ko‘ra baholash natijalariga bog‘lash orqali takomillashtirish bo‘yicha taklif

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025-yil 24-iyuldaggi 05-05/16-07835–son ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning joriy etilishi innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida Qoraqalpog‘iston sanoatini rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning mos bo‘lgan rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

mintaqa sanoatining statistik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish modeli asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari va sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmining 2025-2029 yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025-yil 24-iyuldaggi 05-05/16-07835–son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif asosida olingan prognoz natijalari mintaqada sanoatni innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va YaHM hajmining o‘sish sur’atlarini ta’minkaydigan dastaklarni tanlashga imkon bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o‘tkazilganligi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola (shundan 5 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plamlarida 8 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MA’ZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mintaqqa sanoatini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mintaqqa ishlab chiqarish tizimida sanoat tarmoqlarining funksional roli va ahamiyati atroflicha yoritib berilgan, jumladan, mintaqada sanoatni boshqarishning iqtisodiy indikatorlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ularni aniqlash yo‘llari bayon qilingan hamda sanoatni rivojlantirishni boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ularidan foydalanish istiqbollari bo‘yicha fikr-mulohazalar berilgan.

So‘nggi o‘n yillik ichida O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida modernizatsiyalashni jadallashtirish masalalari milliy xo‘jalik tizimida mos holdagi bir qancha masalalarni hal qilish vositalarini izlab topishga diqqat-e’tiborni kuchaytiradi. Shuning uchun hozirgi kunlarda ayniqsa, mintaqalarda sanoat tizimini boshqarishda ishlab chiqarishning innovatsion o‘sishi va bu korxonalarda mehnat faoliyatini olib borayotgan jamoalarning innovatsion faolligini kuchaytirishga qaratiladigan sanoat korxonasini boshqarishning yangicha tizimini yaratish zarur bo‘lmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga o‘tishda bizning fikrimizcha, sanoat korxonalaridagi boshqaruv mexanizmlari samaradorligini miqdoriy va sifat mazmunidan baholanishi alohida qiziqishni uyg‘otadi. Bundayin murakkab va ko‘p tomonlamali masalani hal qilish nafaqat ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lishini, balki ularning guruhanishini ham ko‘zda tutadi. Bu har bir sanoat korxonasining ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini eng to‘la holda qayta tuzib chiqishga, o‘z hayotiy siklini muvaffaqiyat bilan uzaytirish ichki xo‘jalik mexanizmini qayta tashkil etishga yordam beradi. Mana shu bilan sanoat korxonasining ham o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilishi, ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan kelib chiquvchi tendensiyalar, umumiylar va yondashuvlarga rioya qilinishiga ham erishiladi.

Sanoatni rivojlantirishni boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘rganish davomida shu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadiki, bunda klasterlash siyosatini oqilona amalga oshirish orqali hududlar sanoatining raqobatbardoshlilagini oshirish va davlat-xususiy sherikchilagini mustahkamlash yo‘li bilan sanoat tizimini innovatsion asoslarda rivojlantirish o‘zining samarali natijalarini ko‘rsatadi. Shuni e’tiborga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida sanoatning innovatsion rivojlanishida uning tashabbuskori sifatida davlatning ishtiroki katta ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.




1-rasm. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining namunaviy tuzilmasi⁸

Shu bilan birga, bugungi kunlarda dasturiy-maqsadli metod prognoz va indikativ rejallashtirish metodlari bilan bir qatorda davlat hamda uning alohida

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan

mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi siyosatini amalga oshirish dastaklaridan biri sifatida qo'llaniladi. Har qanday mamlakatda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda davlatning bevosita ishtirok etishidagi asosiy shakl bo'lib umum davlat mintaqaviy dasturlari hisoblanadi. Bunday mamlakat miqyosidagi mintaqalarni rivojlantirish dasturlari o'zida maqsadli majmuaviy dasturlarning turli xil ko'rinishlarini namoyon qiladi, shu bilan birga ular iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik, innovatsion, raqamli va shu kabi yo'naliishlarda mintaqalarning rivojlanish strategiyalarini tartibga solish hamda ularni boshqarish dastagi bo'lib xizmat qiladi. Mintqa sanoat tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining tarkibiy qismlarini quyidagidek tasvirlash mumkin bo'ladi (1-rasm).



2-rasm. Mintqa sanoatini rivojlantirishda masqsadli-dasturiy metodni qo'llash algoritmi⁹

Keltirib o'tilgan rasmdan ham ko'rinish turibdiki, mintqa sanoat tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturida birinchi navbatda shu mintaqaning tarixiy-madaniy va iqtisodiy-geografik xususiyatlarini hisobga olish, mintaqada sanoat tizimining rivojlanishigi ana shu xususiyatlar qanchalik yordam yoki xalaqit berishi, bunday nomutanosiblik holatlari yuzaga kelganda ularni bartaraf etish imkoniyati kabilarga diqqat qaratish lozim. Bundan so'ng mintqa sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi dastlabki holatini o'rganish, joriy davrgacha

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

erishilgan darajasini baholash, kelgusi istiqbolli rivojlanish ko‘rsatkichlari, harakat yo‘nalishlarini baholash zarur bo‘ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga ko‘ra dissertatsiya muallifi Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatni rivojlantirishning dasturiy-maqsadli boshqarish metodi va undan foydalanishning algoritmini taklif qiladi(2-rasm).

Mazkur algoritm doirasida muhim jihat bo‘lib sanoatni rivojlantirishning maqsadli yo‘nalish (ko‘rsatkich)lar tizimini belgilash borasida sanoatni rivojlantirish uchun investitsion ehtiyojlarni baholash, sanoat rivojlanishini mavjud budjetdan moliyalashtirish salohiyati tahlil qilish doirasida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha investitsion imkoniyatlarni baholash asosida sanoatni rivojlantirishni boshqarishning maqsadli dasturi ishlab chiqilishi hamda barcha jarayonlar ustidan - sanoatni rivojlantirish maqsadli dasturining amalga oshirilishini kuzatib (monitoring qilib) borish, o‘zgarishlarni boshqarib borish sanaladi.


Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoati rivojlanishini boshqarishning zamonaviy holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan, mintaqa sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ijtimoiy so‘rovnama orqali baholash usuli yordamida o‘rganib chiqilgan va baholangan, shuningdek, mintaqa sanoati rivojlanishining dasturiy-maqsadli boshqarish metodi va undan foydalanish mexanixmi asoslab berilgan.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini ishlab chiqishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan eng muhim jihatlariga dasturning maqsadi to‘g‘ri va mintaqadagi mavjud imkoniyatlarga mos holda belgilanishi, dasturning asosiy vazifalari, mintaqa sanoati tarmoqlarining yo‘nalishlarini aniq belgilash, dasturni moliyalashtirish manbalari, dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar (prognoz ko‘rsatkichlari) kabilar kiritiladi. Bunda dasturning maqsadini to‘g‘ri belgilash katta ahamiyatga ega bo‘lib, u bugungi innovatsion, yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish trendlarini inobatga olgan holda mintaqa sanoatining eng muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi lozimdir. Bu maqsadlarni belgilash va ularga erishishni ta’minlashda turli xil markaziy hokimiyat organlari (iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar va tashqi savdo yo‘nalishidagi vazirliklar), mahalliy hokimiyatlar, mintaqadagi sanoat korxonalari, klasterlar, biznes subyektlari faol ishtirok etishi lozim.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini amalga oshirish ko‘zlangan maqsadlarga erishishini ta’minlashi talab qilinadi. Bunda mazkur dasturni amalga oshirishdan ko‘zda tutiladigan natijalar sifatida 5 yoki 10 yillik davr oxirida kutiladigan natijalarni rejalashtirish kerak bo‘ladi. Misol uchun, mazkur dasturni amalga oshirish natijasida yo‘lga qo‘yiladigan yangi sanoat loyihalari, yangidan yaratiladigan ish o‘rinnari soni, sanoat mahsulotlari eksporti hajmini oshirish, sanoat sohasida yangi texnoparklar hamda sanoat klasterlarini tashkil etish kabilarni ko‘zda tutish mumkin.

Mana shu keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida amalga oshirish amaliyotini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u holda mazkur

dasturni amalga oshirish mexanizmini quyidagicha tasvirlash mumkin bo‘ladi (3-rasm).



3-rasm. Mintaqasi sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturi va uning elementlari¹⁰

Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatini rivojlantirish bo'yicha mazkur tarmoq dasturi va uning elementlari o'z ichiga mintaqadagi sanoat tarmog'ining hozirgi rivojlanganlik darajasi va uning istiqboldagi imkoniyatlarini hisobga oladi. Bunda mintaqasi sanoatini rivojlantirish dasturining asosiy maqsadlari sifatida:

- mintaqada iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- mahalliy aholi uchun sanoat tarimoqlarida yangi ish o'rinalarini yaratish;
- mintaqasi sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- mintaqasi sanoatining diversifikasiyasini kuchaytirish;

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan

- mintaqa sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;
- sanoat sohasida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik iqtisodiyot talablariga rioya qilish;
- sanoat infratuzilmasini yaxshilash va sanoat sohasiga investitsiya kirituvchi sarmoyadorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish kabilar belgilanadi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturi mintaqaning sanoatni rivojlantirish sohasidagi ichki imkoniyatlari va bu boradagi mavjud muammolarni hal qilish masalasini ko‘zda tutadi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar qatorida respublikaning tabiiy resurslar - tabiiy gaz, neft, uran, fosforit, tuz, kvars qumlari kabi boy resurslarga ega ekanligi, mintaqaning Xorazm, Turkmaniston va Qozog‘iston bilan chegaradosh bo‘lgani uchun keng logistika imkoniyatlaridan foydalanish mavjudligi, mintaqada mehnat resurslari va ishchi kuchining yetarliligi ekanligi, sanoat sohasi uchun malakali kadrlarni yetkazib berish borasida yetarli salohiyatga ega bo‘lgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti orqali mutaxassislar tayyorlash imkonи kabilar hisobga olinadi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirish borasidagi mavjud muammolar esa suv tanqisligi va ekologik muammolarni hal qilish, energetika va transport infratuzilmasining kam ta’minlanganligi, investorlar uchun kam reklama va hududiy xatarlarni davlat tomonidan kafolatlashning yetarli emasligi bilan bog‘liqdir. Bu muammolarni hal qilish uchun suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha davlat dasturi doirasida tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, energetika tarmoqlari va transport yo’llarini modernizatsiyalash, investorlar uchun qulay imtiyozlar tizimini yo‘lga qo‘yish va tavakkallarni kafolatlash choralarini ko‘rish ko‘zda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mintaqa sanoatini rivojlantirish dasturi doirasida eng muhim chora-tadbirlar sifatida mintaqadagi sanoat tarmoqlari yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish doirasida quyidagilar taklif qilinadi. Mintaqada rivojlantirilishi ko‘zda tutiladigan tarmoqlar bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar ichida quyidgilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

a) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash borasida pomidor, tarvuz, qovun, go‘sht, sut, go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash zavodlarini qurish, ekologik toza mahsulotlarni (organik) eksportbop formatda qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish;

b) qurilish materiallari sanoati sohasida sement va gips ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mahalliy xom-ashyo asosida g‘isht, shifer, penoblok, shisha tolasi (steklovata) ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

v) energetika va kimyo sanoati yo‘nalishlarida gazni qayta ishlash zavodini kengaytirish, quyosh va shamol energiyasiga asoslangan alternativ energiya loyihalarini amalga oshirish;

g) to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida paxta xom ashvosini chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish (kiyim-kechak, trikotaj) ko‘paytirish, hunarmandchilik va milliy uslubdagi buyumlar eksporti hajmini oshirish;

d) suvni tejaydigan texnologiyalar asosidagi sanoat ishlab chiqarishi yo‘nalishida damlama sug‘orish uskunalarini yig‘ish va o‘rnatish korxonalarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturi doirasida infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha shu paytlargacha tashkil etilgan industrial sanoat zonalari (Nukus, Mo‘ynoq, Taxiatosh, Qonliko‘l tumanlarida)gi maxsus sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish va kengaytirish, transport infratuzilmasi bo‘yicha Nukus – Xorazm – Buxoro – Qozog‘iston transport koridorini yangilash va u orqali sanoat mahsulotlari eksportini jadal olib borish, logistika markazlarini tashkil etish hamda ular joylashgan chegara va temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni jadal yo‘lga qo‘yish uchun Internet va raqamlashtirish texnologiyalari asosida ishlaydigan platformalarni yaratish kabilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya muallifining fikricha, sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturi doirasidagi barcha maqsad va vazifalarga sanoat sohasida mehnat faoliyatini olib boruvchi yuqori malakali kadrlar bilan erishish mumkindir. Shuning uchun yuqori kadrlar tayyorlash va fan-texnikaning yuqori darajadagi rivojiga erishish uchun mintaqadagi oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi universitetlar va kasb-hunar markazlari negizida sanoat tarmog‘i uchun muhandis-texnologlar, agronom-ekologlar, IT-mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yangi ishlanmalarni joriy qilish lozim bo‘ladi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining mintaqasi sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturida ko‘zda tutilgan barcha bu chora-tadbirlarni moliyalashtirishda quyidagi manbalardan foydalanish tavsiya qilinadi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasining mintaqasi sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturini moliyalashtirish manbalari¹¹

Tarmoq dasturini moliyalashtirish manbalari	Moliyalashtirish manbalarini sarflash yo‘nalishlari
Davlat budgeti mablag‘lari	Infratuzilma va ijtimoiy obyektlarni yaratish uchun
Xorijiy investitsiyalar	Ishlab chiqarish uskunalarini va eksport loyihalarini yo‘lga qo‘yish
Xalqaro moliya institutlari (IFC, WB, ADB) mablag‘lari	Ekologik va suv tejaydigan loyihalar amalga oshirish
Xususiy sektor mablag‘lari	Kichik biznes va klaster shaklida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish

Qoraqalpog‘iston Respublikasining mintaqasi sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturini amalga oshirishdan ko‘zda tutiladigan indikativ ko‘rsatkichlar ma’lum bir davr mobaynida erishilishi lozim bo‘lgan natijalarni aks ettiradi. Mintaqasi sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatida

¹¹ Adabiyotlar sharhi asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

2030-yilgacha bo‘lgan davrda quyidagi indikativ natijalarga erishilishi ko‘zda tutiladi (2-jadval).

2-jadval
Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda erishilishi ko‘zda tutiladigan indikativ natijalar¹²

Erishiladigan ko‘rsatkichlar	Qiymati
Tashkil etiladigan yangi sanoat korxonalari soni	150 tadan oshirish
Eksport hajmini oshirish	kamida 300,0 mln AQSH dollari
Yaratilgan ish o‘rinlari soni	kamida 30 000 ta ish o‘rni
Industrial sanoat zonalari soni	5-7 ta
Sanoat tarmog‘ida muqobil energiya manbalaridan foydalanish ulushi	20 % gacha

Qoraqalpog‘iston Respublikasining mintaqasi sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq dasturini amalga oshirishdan ko‘zda tutiladigan indikativ ko‘rsatkichlar mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirib kelinayotgan yashil energetika, ekologik iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar kabi yo‘nalishlardagi maqsadli ko‘rsatkichlarga to‘la ravishda mos keladi. Shuni e’tiborga olgan holda aytish mumkinki, dissertatsiya muallifi tomonidan taklif etilayotgan sanoatni rivojlantirishning tarmoq dasturi Qoraqalpog‘iston Respublikasini mamlakatimizda sanoati rivojlangan mintaqalari qatorida rivojlanishini ta’minlay oladi.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa sanoati rivojlanishi boshqarish tizimi takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida sanoatni rivojlantirishning tarmoq dasturlarini ishlab chiqish tamoyillari tavsiflab berilgan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatini rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan va mintaqasi sanoatini rivojlantirishning 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

